



MAMLAKATIMIZDA KLASTERLAR FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

DEVELOPMENT TRENDS OF CLUSTER ACTIVITIES IN OUR COUNTRY

¹*Shodmonov Bahodir
Sherkulovich*

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasida klasterlar faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda klaster yondashuvining nazariy asoslari, uning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni hamda agroklasterning hududiy rivojlanishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada 2018-2024-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, xususan yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi, unda sanoat va to'qimachilik tarmoqlarining ulushi, klasterlarning eksport-import hajmi, ularga kiritilgan investitsiyalar tahlil qilingan.

Eng. - This article is devoted to assessing the economic efficiency of cotton-textile clusters in the Republic of Uzbekistan and analyzing trends in the development of investment processes. The study examines the theoretical foundations of the cluster approach, its role in shaping an innovative economy, and the importance of agro-clusters in regional development. The article analyzes key macroeconomic indicators of Uzbekistan's economy for the period 2018-2024, including the volume of gross domestic product (GDP), the share of industry and the textile sector in GDP, the export and import volumes of clusters, and the level and dynamics of investments attracted to the cotton-textile cluster sector.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *paxta-to'qimachilik klasterlari, agroklasterning, investitsiya, YaIM, eksport, import, integratsiya, moliyaviy barqarorlik.*
❖ *cotton-textile clusters, agro-cluster, investment, GDP, export, import, integration, financial stability.*

Kirish.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida investitsion faoliyat samaradorligini baholashda, avvalo, sanoat tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi strategik o'rni hamda klaster tuzilmalarining ishlab chiqarish salohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tushunish zarur hisoblanadi. Paxta-to'qimachilik klasterlari paxta yetishtirish, uni qayta ishlash va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini yagona texnologik zanjir doirasida birlashtirgan korxonalar tizimi bo'lib, ularning investitsion samaradorligi

iqtisodiy rentabellik ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlari hamda eksport salohiyatining o'sishi orqali baholanadi.

Mazkur klasterlarda investitsion faoliyat samaradorligini aniqlash resurslardan optimal foydalanish, xom-ashyoni qayta ishlash darajasi, mahsulot sifati va hajmi, bozor talabi hamda daromadlilikni kompleks tahlil qilishga asoslanadi. Shu bilan birga, moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan investitsiya qaytimi (ROI), foydalilik koeffitsienti, ishlab

chiqarish xarajatlari va mahsulotni sotish hajmi, shuningdek innovatsion va texnologik yangilanishlarning ta'siri investitsion samaradorlikni baholashda asosiy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda, xususan, 2018-2024-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini namoyish etib, yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining 61,3 mlrd. AQSh dollaridan 121,4 mlrd. AQSh dollarigacha oshishi iqtisodiy rivojlanishning uzluksizligini tasdiqlaydi. 2020-yilda kuzatilgan o'sish sur'atlarining pasayishi global pandemiya bilan bog'liq qisqa muddatli omillar ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyingi yillarda iqtisodiyotning tez sur'atlarda tiklanishi investitsiyalar hajmining ortishi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va eksport salohiyatining kengayishi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Mazkur ijobiy makroiqtisodiy tendensiyalar investitsion faollikning oshishi va eksport hajmining kengayishi, paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish, ularda investitsion jarayonlar samaradorligini oshirish hamda klasterlarning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash uchun muhim iqtisodiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan. S. Rosenfeldning so'zlariga ko'ra, klasterlarni yaratish zamonaviy iqtisodiy rivojlanish va kam rivojlangan hududlar strategiyasining asosi hisoblanadi [1].

S. Rosenfeld ta'kidlaganidek, klasterlarni shakllantirish hududiy iqtisodiy integratsiya, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish orqali zamonaviy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, klasterlar hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va mahalliy iqtisodiyotni

barqarorlashtirishga imkon yaratadi, bu esa milliy raqobatbardoshlikni oshirishga sezilarli hissa qo'shadi.

Bevosita agroklasterning mohiyatiga kelsak, Nastin tomonidan agroklaster quyidagicha ta'riflangan:

"Agroklaster bir vaqtning o'zida va o'zaro hamkorlikda ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish hamda atrof-muhitni himoya qilish maqsadida geografik jihatdan bir hududda joylashgan, o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi turli mulk egalari – oilaviy xo'jaliklar, fermerlarning kooperativ korxonalari, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari, maslahat xizmatlari va bozor sub'ektlari tizimidan iborat" [2].

Shu ta'rifga muvofiq, agroklaster – bu geografik jihatdan bir hududda joylashgan va o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiruvchi turli mulk egalari va tashkilotlarni o'z ichiga olgan tizim bo'lib, ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish va atrof-muhitni himoya qilishda birgalikda faoliyat yuritadi. Ushbu tizim oilaviy xo'jaliklar, fermer kooperativlari, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari, maslahat xizmatlari hamda bozor sub'ektlarini o'z ichiga oladi. Shu bois, agroklasterlar nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlash va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi kompleks tizim sifatida qaraladi.

M.Porterning klasterlar nazariyasi doirasida, sanoat klasterlari korxonalar va ta'minot zanjirlarini birlashtirib, innovatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi [3]. Paxta-to'qimachilik klasterlari ham shu printsip asosida ishlab chiqarish samaradorligini va eksport salohiyatini oshirishi mumkin deb hisoblanadi.

M.Enright sanoat klasterlarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishini ta'kidlaydi [4]. Unga ko'ra, agroklasterlar, xususan paxta-to'qimachilik tarmog'i, mahalliy ish o'rinlarini yaratish va innovatsion

texnologiyalarni joriy qilishda muhim vositadir.

Sh. Xolmatov paxta-to'qimachilik klasterlari mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini, ularning samaradorligi investitsion jarayonlar va eksportni rivojlantirish orqali oshirilishi mumkinligini ta'kidlaydi [5].

N. Qodirov esa agroklaster yondashuvini paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishining uzluksizligini va xom-ashyo qayta ishlashni birlashtirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi, deb hisoblaydi [6].

D. Mirzayev paxta-to'qimachilik klasterlari hududiy rivojlanish va ish o'rinlari yaratishda samarali vosita ekanini, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun platforma vazifasini bajarishini ta'kidlaydi [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda paxta-to'qimachilik klasterlari mamlakatimiz sanoat salohiyatini oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda, shuningdek, ular innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida sezilarli rivojlanish tendensiyalarini namoyon qilmoqda. Sanoat sektori YaIM tarkibida asosiy o'rinlardan birini egallab, 25-27 foiz oralig'ida barqaror ulushni saqlab kelmoqda. Garchi 2022-2023-yillarda bu ko'rsatkichda ma'lum darajada pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2024-yilda qayta tiklanish tendensiyasini ko'rish mumkin.

1-jadval

2018-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining YaIM va unda sanoat tarmog'ining ulushi

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi, mln AQSH dollari	61 323,9	70 152,9	70 116,5	81 166,1	94 277,2	107 505,2	121 352,6
Sanoat tarmog'ining YaIMdagi ulushi, foizda	25,2	27,2	27,1	27,0	25,6	24,9	26,1
shu jumladan:							
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'ining YaIMdagi ulushi, foizda	1,9	1,7	1,8	2,1	2,1	2,0	1,9


To'qimachilik sektori YaIM tarkibida nisbatan kichik ulushga ega bo'lib, 2021-2022-yillarda bu ko'rsatkichda ma'lum darajada o'sish kuzatilgan (1,7-2,1%). Ushbu o'sish ichki talabning oshishi va eksport salohiyatining kengayishi bilan bog'liq bo'lib, to'qimachilik tarmog'ida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun qo'shimcha investitsiya kiritish va texnologik modernizatsiyani rivojlantirish zarur. Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sishda davom etmoqda,

sanoat sektori esa milliy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega. Kelajakda yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

2019-2024-yillar davomida O'zbekiston klasterlari tomonidan amalga oshirilgan eksport va import hajmlari o'zgaruvchan tendensiyalarni namoyon qilmoqda. Xususan, eksport hajmi 2019-yildan 2021-yilgacha

sezilarli darajada oshib, 285,3 ming AQSh dollaridan 817,8 ming AQSh dollariga yetgan. Ushbu o'sish paxta sanoatida klaster mahsulotlariga xalqaro bozorlarda talabning ortishi hamda eksport salohiyatining mustahkamlanishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, 2021-yildan boshlab eksport hajmi sekin

pasayish tendensiyasini namoyon qilgan: 2022-yilda 783 ming, 2023-yilda 754 ming va 2024-yilda taxminan 741 ming AQSh dollariga tushgan. Ushbu o'zgarishlar eksport bozoridagi sharoitlar va global iqtisodiy muhitga moslashish jarayonini aks ettiradi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida klasterlar tomonidan amalga oshirilgan eksport-import ko'rsatkichi, ming AQSh dollari

Import ko'rsatkichlari 2019-2022-yillarda o'sish tendensiyasini namoyon qilib, 285,3 ming AQSh dollaridan 416,6 ming AQSh dollariga yetgan. Keyingi yillarda import hajmi pasayib, 2023-yilda 376,6 ming, 2024-yilda esa 260,9 ming AQSh dollariga tushgan. Ushbu pasayish ichki ishlab chiqarishning rivojlanishi va klaster mahsulotlarining ichki bozorga muvaffaqiyatli joriy etilishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, klasterlarning eksport hajmi import hajmidan yuqori bo'lib, bu holat eksportga yo'naltirilgan faoliyatining samaradorligini tasdiqlaydi. Eksport hajmining barqarorligi va import hajmining kamayishi ichki ishlab chiqarish salohiyatining kuchayganini va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatining oshganini ko'rsatadi. Kelgusida klasterlar eksportni yanada rivojlantirish va ichki resurslarni samarali boshqarish milliy

iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. Shu bilan birga, eksportdagi vaqtinchalik pasayishlar bozor sharoitlari va global iqtisodiy muammolar bilan bog'liq bo'lib, ushbu risklarni kamaytirish maqsadida klaster faoliyatida diversifikatsiya va innovatsion yechimlarni joriy etish zarur.

2018-2024-yillarda paxta-to'qimachilik klasterlariga moliyalashtirish hajmi sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatdi. Asosiy kapitalga investitsiyalar 2018-yilda 157 mlrd. so'mdan 2019 va 2020-yillarda sezilarli darajada oshib, 1,3 trln. so'm atrofida bo'lgan. Biroq, 2021-yilda investitsiyalar hajmi kamayib, 795 mlrd. so'mga tushgan; keyingi yillarda, 2022 va 2023-yillarda esa yana oshib, 3,5 trln. so'mga yetgan. 2024-yil uchun ko'rsatkichlar esa keskin pasayishni ko'rsatmoqda.

Sanoat mahsulotlari eksporti (tovar va xizmatlar hajmi) 2018-yildan boshlab sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etdi. 2018-yildagi 271 mlrd. so'mdan 2021-yilda 5,7 trln. so'mga yetgan bo'lib, klasterlarning yuqori eksport salohiyatini ko'rsatadi. Keyingi yillarda eksport hajmi biroz pasayish kuzatgan

bo'lsa-da, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi sezilarli o'sish bilan tavsiflanadi: 2018-yilda 242 mlrd. so'mdan 2024-yilda 32,3 trln. so'mgacha yetgan. Ushbu o'sish sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining barqaror va yuqori sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

Paxta to'qimachilik bo'lgan klasterlarning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot, mln so'mda

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar	157357,315	1282268,829	1306865,235	795324,246	1752909,204	3457825,789	361618,741
Respublikadan tashqariga yuklab jo'natilgan sanoat mahsulot (tovar va xizmat) lari hajmi	271734,7007	834625,3	3312634,352	5752009,665	5196846,385	4850828,267	5882260,379
Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz)	242312,736	2832551,222	9714960,608	18132265,9	24974541,87	27991961,79	32310156,37
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-))	27319,857	158482,593	292912,326	876408,738	962728,232	-373123,327	-519574,85

Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda ko'rsatkichi 2018-2022-yillarda ijobiy darajada bo'lishiga qaramay, 2023 va 2024-yillarda salbiy tendensiyani ko'rsatmoqda. Ushbu yilgi zararlar bozor sharoitlaridagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Umuman olganda, paxta-to'qimachilik klasterlari 2018-2024-yillarda ishlab chiqarish va eksport hajmlarida sezilarli o'sishni namoyish etdi, shuningdek, investitsiyalar ham oshib bordi. Biroq so'nggi yillarda daromadlilik va foyda ko'rsatkichlarining salbiy tomonga o'zgarishi ehtiyotkorlik bilan tahlil qilinishini talab qiladi. Kelajakda klasterlarni barqaror rivojlantirish uchun samarali boshqaruv mexanizmlari va innovatsion yechimlarni joriy etish zarur.

2019-2024-yillarda paxta-to'qimachilik klasterlariga qaratilgan jami investitsiyalar hajmi o'zgaruvchan bo'lib, umumiy trend pasayishni ko'rsatmoqda. Xususan, 2019-2020-yillarda investitsiyalar hajmi taxminan 1,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda eng yuqori ko'rsatkich – 1,4 mlrd. dollarga yetdi. Ushbu o'sish klasterlarga yo'naltirilgan sarmoyalarning oshgani va ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha yirik loyihalarning amalga oshirilishidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 2022-yildan boshlab jami investitsiyalar hajmi kamayib, 2024-yilda 0,6 milliard dollarga tushgan, bu esa sarmoya oqimining pasayishi yoki klasterlarning ichki moliyalashtirishga ko'proq tayanayotganini ko'rsatadi.



2-rasm. Paxta-to'qimachilik klasterlariga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. AQSh dollar)

Xorijiy investitsiyalar hajmi butun davr mobaynida kamayish tendensiyasini namoyon qilgan: 2019-yilda 0,4 mlrd. AQSh dollaridan 2024-yilda 0,1 mlrd. dollarga tushgan. Ushbu holat xorijiy kapital oqimining pasayishi yoki global iqtisodiy sharoitlar, shuningdek, siyosiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sarmoyalarning kamayishini ko'rsatadi. Umuman olganda, paxta-to'qimachilik klasterlariga kiritilgan sarmoyalar hajmi sezilarli bo'lsa-da, xorijiy investitsiyalar hajmi kamaymoqda, bu esa ichki investitsiyalar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati oshganini ko'rsatadi. Kelajakda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun barqaror iqtisodiy siyosat va ishonchli investitsiya muhitini yaratish zarur. Paxta-to'qimachilik sohasida yuqori texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun investitsiya oqimini barqarorlashtirish, xususan, xorijiy investitsiyalarni ko'paytirishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida paxta-to'qimachilik klasterlari sanoat va eksport salohiyatini oshirishda muhim strategik rol o'ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Воронов А. Кластерный анализ–база управления конкурентно способностью на макро-уровне // Маркетинг. 2003. № 1. С. 11–20.

Sanoat sektorining YaIMdagi barqaror ulushi mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim tayanchi bo'lib, to'qimachilik tarmog'i esa nisbatan kichik ulushga ega bo'lsa-da, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatiga ega.

2019-2021-yillarda klasterlar eksportining jadal o'sishi xalqaro bozor talabining oshganini va mahsulot raqobatbardoshligini ko'rsatadi. Keyingi yillardagi pasayishlar esa global iqtisodiy omillar va bozor sharoitlari bilan bog'liq. Import hajmining kamayishi ichki ishlab chiqarish quvvatlarining kuchayganidan dalolat beradi. Investitsiyalar hajmining keskin tebranishi, ayniqsa 2024-yildagi pasayish, investitsiya siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy investitsiyalarning kamayishi esa barqaror va ishonchli investitsiya muhitini yaratish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining barqaror o'sishi klasterlar ishlab chiqarish salohiyatining yuqoriligini ko'rsatsada, foyda ko'rsatkichlarining manfiylashuvi moliyaviy boshqaruv, xarajatlar samaradorligi va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini anglatadi.

2. Настин А.А. Сельскохозяйственный кластер Дании. // «Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий», 2011, №4. – С. 45.
3. Porter M. *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press, 1990. – 850 p.
4. Enright M.J. *Regional Clusters and Firm Strategy* // *Geography and Strategy*. – 2000. – Vol. 12, №3. – P. 45–62.
5. Xolmatov Sh. *Paxta-to'qimachilik klasterlari va ularning milliy iqtisodiyotdagi roli*. – Toshkent: Fan, 2018. – 128 b.
6. Qodirov N. *Agroklaster yondashuvi va paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishining samaradorligi*. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2019. – 96 b.
7. Mirzayev D. *Hududiy rivojlanish va paxta-to'qimachilik klasterlarining investitsion salohiyati*. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020. – 104 b.